

## GO'DAKLIK DAVRIDA PSIXIK RIVOJLANISH

### XUSUSIYATLARI

*Axmatova Malika Xusan qizi*

*Shahrисабз Davlat Pedagogika institute*

*Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada bolaning go'daklik davridagi rivojlanish xususida so'z yuritiladi. Hamda xatti-harakatlari va psixik xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Ayniqsa, gudaklik davrida bolalarda paydo bo'ladigan olyi psixik funksiyalarning paydo bo'lishi yoritilgan. Zotan, ushbu davr bolaning eng muhim davrlaridan biri hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** go'dak, 2 oylik, 3-4 oylik, 5-6 oylik, 9-10 oylik psixik rivojlanish, psixik funksiyalar, chaqaloq.

Ushbu davr – bolaning himoyasiz, kamharakat, atrofdagi hodisalarga kam reaksiyasi bo'lgan boladan juda jadal ravishda rivojlanadigan, faol, tez ulg'ayadigan, harakatchan, yordamga chaqira oladigan quvnoq bolaga aylanish davrlaridan biridir. Ular bu davrda juda tez rivojlanadi. Atrof muhitni, insonlarni anglashni va o'rganishni boshlaydi. Har bir ko'rgan predmetini qo'llari bilan ushlashga va og'ziga solib, nima ekanligiga qiziqa boshlaydi. Va bu davrda ular kattalar bilan hamkorlikdagi emotsiional munosabat bilan bog'liq bo'ladi. L.S. Vigotskiyning ta'kidlashicha, emotsiional bo'ron tipi bo'yicha kechadigan affiktiv reaksiyalarning paydo bo'lishi 1 yoshdagi inqiroz namayon bo'lishining xulq atvor belgilaridir. Go'dak organizmi hali yaxshi rivojlanmagan, a'zolari nozik, tez kasalga chalinadigan bo'ladi. Shu sababli, sinchiklab parvarish qilishga moyil bo'ladi. Bu davrda bolaning bo'yi va vazni tez o'sadi va unda energiya sarfi oshib borgani bois, ko'pgina, asosan hazm, nafas, yurak-tomir va boshqa sistemalari faoliyati tez takomillashib boradi. Kattalar bilan emotsiional munosabatda bo'lish bu yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyatidir va psixik

taraqqiyotining asosidir. Bolalar muntazam kattalar nazorati ostida bo'lishi va didaktik qaratilishiga odatlanishi, oyinchoqlarga bo'lgan qiziqishni so'ndirishiga olib keladi. Kattalar bilan bajariladigan har qanday harakatlar bolaning kelgusi psixik rivoji uchun asos bo'ladi deyolamiz. Kattalarning bolaga nisbatan emotsiasi, ularning gaplariga bolaning diqqatini jalb etish, javob qaytarishga harakat qilishi, ba'zi so'zlarni esda saqlab qolishi, emotsia bildirishi, diqqat, xotira, nutq va shu kabi jarayonlarnig rivojlanishiga zamin bo'ladi. Kattalarning bolaga nisbatan munosabati, ularning kayfiyatiga ta'sir qiladi. Go'dak 2 oyli vaqtidan boshlab onasining yuzini, ovozini begonalardan ajrata boshlaydi. 2-3 oylik davrda o'z yaqinlariga harakatlari orqali ko'rish, eshitishni, gapirishni hoxlayotganini ko'rsatadilar. Bolalar 4-5 oyligidan boshlab o'z yaqinlarini begonalardan ajrata boshlaydi. Tarbiyaning to'g'ri olib borilishi bolaning kattalar bilan bo'ladigan munosabatini, predmetlar, o'ynchoqlar bilan munosabatining almashishiga olib keladi. 4-5 oydan boshlab har kuni 5minutcha badabtarbiya qildirish lozimdir. 8oylikdan boshlab, begonalar qo'liga tushsa o'z havotirini yig'isi orqali namoyon qiladi. Va bu havotir 14-18 oylikda susaya boshlaydi 10 oylikdan bemalol o'rnidan turib, "obke" yoki "ayt" deganingizni qiladi; "qilma", "qil" deganning farqiga yetadi. 10 – 15 tacha so'z biladi. Go'dak bolalar jismoniy jihatdan tez rivojlanishi bilan birga psixik jihatdan ham tez rivojlanadi. Ular atrof muhitni anglay boshlaydi va ularga javob qaytarishga harakat qiladi. Go'dak bola yoshga to'lguncha juda ko'p harakatlarni o'zlashtira oladi. Bolaning qiladigan turli- tuman qiladigan harakatlari orasida qo'l harakatlari psixik taraqqiyoti uchun muhim hisoblanadi. Psixik taraqqiyotda murakkab harakatlarni egallab boorish juda katta rol o'ynaydi. 6- oyda go'dak o'tira boshlaydi. Undan so'ng esa unda yangidan- yangi taasurotlar paydo bo'ladi va uning natijasida idrok, diqqat , xotira kabi psixik jarayonlar rivojlana boshlaydi. Jismoniy jihatdan sog'lom bo'lgan bola 9-10 oylik vaqtida yura bsohlaydi bolaning mustaqil ravishda yura boshlashi, uning hayotidagi eng katta hodisa hisoblanadi. 6 oylik go'daklarda esa taqlid harakati paydo bo'ladi. Asosan bola nutqni taqlid orqali o'zlashtiradi. Va ular ayrim so'zlarni tushuna boshlagach kattalr bilan aloqada bo'lishni xohlaydi, shu

sababli bu davrda u bilan aloqada bo'lib, uning nutqini rivojlantirishga ko'mak berish lozim. 1 yoshdan oshgan bolalar lug'atida kamida 30- 40 ta so'z bo'lishi kerak. Uning ravon, to'g'ri gapisishini ta'minlash lozim. Ularga so'zlarni to'g'ri o'rgatish lozim. Bu davrdan so'ng ilk bolalik davri boshlanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki , go'daklik davrida bola ko'proq e'tibor talab qiladi . Uni to'g'ri parvarish qilish lozim . Uning hatti – harakatlarini e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur . Hozirgi vaqtida ekoliya sababli bolalarda tug'ilgandanoq turli xil kasalliliklar paydo bo'ladi . Va buni bartaraf etish uchun homila vaqtidanoq uning parvarishiga e'tibor berish lozim . Normal 9-10 oylikdan yura boshlashi aytildi , ammo ba'zi bolalarda bu holat bir yoshdan oshgandan so'ng , yoki bo'lmasa, undan ham keyin bo'lishi mumkin. Bunga sabab birinchi navbatda , ekologiyaning buzilishi hamda , bolada suyaklarning mustahkam bo'lmasligi , bola organizmida kerakli vitaminlar yetishmasligi , eng asosiysi esa, ota-onalarning o'z farzandlariga nisbatan befarqligidir . Xususan , ota-onalar bu borada farzandlari bilan 6-7 oylikdan shug'ullana boshlashi kerak . Muntazam ravishda muammoning oldini olish uchun ota-onalardan e'tibor talab qilinadi . Zeroki , yosh avlod ertamiz kelajagidir .

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :**

1. Akxmedov , B.T. (2021) . The Family as the Basic Unit of Society . International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding , 8(12), 201-204 .
2. Imonova, M, & Tojiyeva , D. (2024). PSIXOLOGIK XIZMATNING INSON HAYOTIDAGI TUTGAN O'RNI . Журнал педагогики и психологии в современном образовании , 950-952.
3. Imonova , M.B (2023). Oila tinchligi – jamiyat farovonligi asosi . Finland academic research science publisher , 1148-1151.